

10-dars.

Darning mavzusi: Undosh tovushlar va harflar (31 – 34-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarda unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni to'g'ri talaffuzi va imlosi haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamalash; unli va undosh tovushlar talaffuzi va imlosi, so'zlarni bo'g'inga ajaratish va ko'chirishni, so'zlarni bo'g'in-tovush va tovush-harf jihatdan tahlil qilishni bilish; talaffuz me'yorlariga rioya qilish, bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Kattalarga hurmatda bo'lish, ularni qadrlashga o'rgatish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'zidan kichiklarga yordam berish ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirish; o'qituvchi nutqini va mavzuga oid tushunchalarni, o'zaro savol-javob, topshiriqlarni, kichik matnlarni, mavzu doirasidagi video va audio matnlarini tinglab tushuna olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Dars turi: mustahkamlovchi dars

Darsning metodi: suhbat, analiz, mustaqil ish metodi, "Gap tuz" ta'limiy o'yini.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi: *Mehmon kelgan uy – barakali.*

Uy vazifasi va quyidagi savollarni so'rash orqali o'rganilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimi aniqlanadi va mustahkamlanadi:

– **Berilgan buyumlar va jonzoqlar nomida sh, ch, ng harf birikmalari ishtirok etmagan so'zlar bor ekanmi?**

– *Buyumlar va jonzotlar nomida sh, ch, ng harf birikmalari ishtirok etgan soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratib, daftaringizga yozdingizmi?*

III. Mustahkamalash.

31-mashq oʻquvchilarga bajartiriladi.

Mehmon kutib singilcham

Kulcha yopdi berilib.

Qozonga guruch. soldi,

Choy damladi kerilib.

Keling, oling, yeb koʻring,

Deb likopcha tuzadi.

*Loydan **patir**, toshdan non*

*–**Dasturxonni** bezadi*

Oʻquvchi sheʼriy parchada ajratib koʻrsatilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzdiriladi:

Namuna:

1. **Mehmonni** ochiq chehra bilan kutib olish kerak.

2. Onam toʻrt quloqli **qozonda** ovqat pishirdilar.

3. Bobom **patirli** non olib keldi.

4. Ochil **dasturxonni** berishini soʻradi.

32-mashq. Oʻquvchilar bilan “Gap tuz” taʼlimiy oʻyin oʻtkaziladi. Buning uchun oʻquvchi berilgan maqollarning boshini oʻqiydi oʻquvchilar davom ettiradilar.

Maqollarni davom ettiring:

1. Achchiq savol berib, shirin javob kutma.

2. Koʻp gap – elni bezdirar.

3. Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga.

4. Vataning tinch – sen tinch.

33-mashq ogʻzaki bajariladi. Test topshiriqlariga ogʻzaki javob berish soʻraladi.

1. Qaysi qatorda harf birikmalari boʻgʻinga ajratish qoidasiga muvofiq ajratilgan?

A) sha-ja-ra, olcha, tong;

B) shaja-ra, o-lcha, tong;

D) sha-ja-ra, ol-cha, tong;

E) sha-ja-ra, ol-cha, to-ng. (*Toʻgʻri javob: D*)

2. Qaysi qatorda harf birikmalari boʻgʻinga ajratish qoidasiga muvofiq ajratilmagan?

- A) ko'-ngil, si-ngil, cha-qa-loq;
- B) ke-li-ngiz, de-ngiz, ta-nga;
- D) teng-siz, teng-dosh, chi-roy-li;
- E) chash-ma, den-giz, bu-vin-giz. (To'g'ri javob: A)

IV. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

34-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.

CHOP ETISH UCHUN EMAS!